

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3--SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

R.A.Mamajonov O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida xuquqiy va axloqiy-me'yoriy munosabatlar, o'zaro muloqot madaniyati	545
B.A.Pulatov Yoshlar tafakkurida harbiy qahramonlik ideallarini shakllantirishda ta'lim-tarbiyaning istiqboldagi vazifalari	548
K.I.Marayimova Bo'lajak o'qituvchilarni turizm faoliyatiga tayyorlashning pedagogik-psixologik xususiyatlari ...	552
N.M.O'rinova, G.I.Tillabayeva Talabalarning mustaqil ta'lim olish kompetentligini rivojlantirish usullari	557
D.I.Asqarova Innovatsion yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachilarda kreativlikni rivojlantirish omillari	561
M.Q.Jabborova, Sh.D.Raxmatjonov Maktabgacha yoshdagi bolalarni psixologik, intellektual va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishda ilk davrning o'ziga xos xususiyatlari	569
M.Q.Jabborova Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarini pedagogik faoliyatga tayyorlashning zamonaviy sifatiga erishish omillari	572

FALSAFA

A.A.A.Qambarov "Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari" konsepsiyasini amalga oshirishda diniy qadriyatlar omilining innovatsion xususiyatlari	579
I.M.Arzimatova Boshqaruv kadrlari faoliyatida ma'naviyatning o'rnini	583
D.E.Normatova Sharq ilk uyg'onish davri va uning ilmiy-falsafiy mohiyati	588
I.A.Asatulloev Karl Yung qalb konsepsiyasida sharq va g'arb xalqlari ma'naviy hayotining qiyosiy tahlili	593
T.Y.Bakirov, S.A.Soxibov Korrupsiyaviy munosabatlarni oldini olishning falsafiy-analitik tahlilining ta'limiy jihatlari	597
S.S.Evatov Kalom ilmining vujudga kelishi va uni islomdagi aqidaviy masalalarni o'rganishdagi o'rnini	602
I.Y.Toirov Sivilizatsiya masalalarining nazariy - metodologik jihatlarni o'rganish muammolari	606
A.M.Rasulov Axborot va axborot makoni tushunchasi, ularning falsafiy tahlili	610
A.A.Sayitxonov Jamiyat va shaxs rivojida qadriyatlarning o'rnini	614
F.A.Yuldashev Socio-philosophical analysis of categories of needs and interests	618
S.P.Tojiboyev Boshqaruv kadrlarining axloqiy madaniyati va unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar tahlili	625
B.X.Mirzaraximov, B.T.Shokirov Yoshlarda axborot madaniyatini shakllantirishning asosiy mezonari	631
M.A.Abduxamidov Sovetlarning O'zbekistondagi masjidlariga munosabatining tahlili	635

SIYOSAT

J.A.Dadaboyeva Farzandlikka olishni bekor qilish asoslari	638
A.A.G'aniyev Yangi iqtisodiy siyosat sharoitida O'zbekiston qishloq xo'jalik kooperativlari faoliyati	643

TARIX

B.A.Usmonov "Sohibqiron" atamasining kelib chiqishi va ma'nosiga oid fikrlarga bir	648
--	-----



UO'K: 28-9(1-11)|653|

KALOM ILMINING VUJUDGA KELISHI VA UNI ISLOMDAGI AQIDAVIY MASALALARNI O'RGANISHDAGA O'RNI**ВОЗНИКНОВЕНИЕ НАУКИ О СЛОВЕ И ЕЕ МЕСТО В ИЗУЧЕНИИ ДОГМАТИЧЕСКИХ ВОПРОСОВ ИСЛАМА****THE EMERGENCE OF THE SCIENCE OF THE WORD AND ITS PLACE IN THE STUDY OF DOGMATIC ISSUES IN ISLAM****Evatov Salimjon Sobirovich**

Farg'ona davlat universiteti Falsafa kafedrası katta o'qituvchisi, PhD.

Annotatsiya

Mazkur maqolada Kalom ilmining vujudga kelishi, uni islomda mavjud bo'lgan turli siyosiy-diniy firqalarning o'zaro munozaralari va boshqa din vakillari bilan bo'lgan bahslashishlar jarayonida takomillashganligi hamda Kalom bilan Islom aqidalarining uyg'unlashuvi kabi fikr-mulohazalar bayon qilingan.

Аннотация

В данной статье описывается возникновение знания Слова, его совершенствование в процессе дискуссий между различными политическими и религиозными сектами в Исламе и дебатах с представителями других религий, а также гармония Слова и исламских верований.

Abstract

This article describes the emergence of the knowledge of the Word, its improvement in the process of discussions between different political and religious sects in Islam and the debates with representatives of other religions, as well as the harmony of the Word and Islamic beliefs.

Kalit so'zlar: islom teologiyasi, islomning mafkurasi, kalom ilmi, kalom falsafasi, islom aqidalari, oqim va firqalar, mutakallimlar, mu'taziliylar.

Ключевые слова: исламское богословие, идеология ислама, знание слова, философия слова, исламские верования, движения и фракции, мутакаллимы, мутазилиты.

Key words: Islamic theology, ideology of Islam, knowledge of the word, philosophy of the word, Islamic beliefs, movements and factions, Mutakallim, Mu'tazilites.

KIRISH

O'rta asr Sharqida teologik qarashlarning rivojlanishida kalom ilmining o'rni yuqori hisoblanadi. Shu bois kalom ilmini tadqiq etish va o'rganish dolzarb vazifalardan biridir. Kalom ilmi alohida hodisalar sifatida ko'plab tadqiqotlarda o'rganilgan va tadqiq etilgan. Biroq uning islom sivilizatsiyasining shakllanishi, o'rta asr Sharq gnoseologik va teologik yondashuvlar jarayonlaridagi o'zaro aloqadorligini, bog'liqligini ko'rsatib beruvchi tadqiqotlar unchalik ko'p emas. Zotan, "mamlakatimizda "jaholatga qarshi – ma'rifat" degan ezgu g'oya asosida islom dinining insonparvarlik mohiyatini, tinchlik va do'stlik kabi oliyjanob maqsadlarga xizmat qilishini targ'ib etish kun tartibimizdagi doimiy masalalardan biri bo'lib qoladi"[1:43].

Har bir mamlakat uchun o'zining o'tmish merosini o'rganish va bu boradagi tadqiqotlarni qo'llab-quvatlash uning ijtimoiy sohadagi islohotlarining ajralmas qismi bo'lib kelgan. Yangi O'zbekistonda 2017-yilning o'zida davlatimiz rahbari tashabbusi bilan mamlakatimizda islomning asl insonparvarlik maqsadini jahon hamjamiyatiga ko'rsatib berishga qaratilgan Imom Termiziy va Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari, O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi va O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi tashkil etildi, qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimi yanada takomillashtirildi. Abduxoliq G'ijduvoniylar tavalludining 915 yilligini va Bahovuddin Naqshband tavalludining 700 yilligini nishonlanishi ham yuqoridagi o'zgarishlarning tarkibiy qismi hisoblanadi[9:6].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Islom teologiyasining asosi bo'lgan Kalom ilmining rivojlanishida o'ziga xos intellektual uyg'onish va gnoseologik faoliyat juda katta ahamiyatga ega bo'lgan.

Kalom ilmi tarixida Markaziy Osiyo mutakallimlarining ma'naviy merosi, xususan, kalom ilmiga oid manbalardagi diniy bag'rikenglik, zamonaviy dunyoviy jamiyatda islom qadriyatlarini integratsiya qilish, tinchlik, adolat, inson huquqlari toptalishini oldini olish, ruhiy-ma'naviy kamol topishni targ'ib qilishdagi o'rni benihoya katta.

Shayx Abul Hasan al-Ash'ariy sunnat aqidalarini mudofaa va muhofaza qilish uchun kalom ilmiga asos soldi va uni ilmiy muomalaga kiritdi[8]. Ash'ariya maktabi an'alarini davom ettirgan va g'oyalari takomillashtirgan mutafakkir Abu Bakr Boqilloni bo'lib uni "kalom ilmining yo'riqlarini tuzatuvchi" deb tarif berganlar[6:465].

Az-Zamaxshariy va al-Moturidiylar kalom ilmining buyuk namoyandalari bo'lganlar.

Keyingi islom ulamolari kalom ilmiga yunon falsafasi usul va tushunchalarini kiritishgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Kalom falsafasi islom ilohiyotining eng yuqori cho'qqisi va fikriy taraqqiyotining namunasi sifatida qadrlanadi. Kalom so'zi "nutq" va "so'z" ma'nolarini anglatadi. Ba'zi manbalarda "munozara", "bahs" ma'nolarini anglatishi ham keltirilgan[3:73]. Umumiy ma'noda diniy-falsafiy mavzularga bag'ishlangan keng mulohaza yuritishga nisbatan ishlatilsa, tor ma'noda esa – islom aqidalarini faqatgina obro'li ruhoniylar fikriga ergashib emas, balki aqlga ham asoslanib talqin qiluvchi fan sifatidagi ilohiyotni bildirgan kalom ilmi vakillarini mutakallimlar deb atalgan. Mutakallimlar turli maktablar va guruhlarga bo'linganlar, lekin ularning barchasi u yoki bu darajada ratsionalizmdan foydalanganlar. Ularning asosiy maqsadi barcha vositalardan foydalangan holda o'z e'tiqodlarini isbotlash va, eng muhimi, musulmon ahli uchun maqbul bo'lgan islomiy aqidalar tizimini yaratishdan iborat bo'lgan[12:12]. Bu esa, teologik qarashlarni sof islom ratsionalizmi va gnoseologik yondashuvlari bilan sintezlashuvchini talab qilgan.

Kalom ilmining vujudga kelishi, VIII–IX asrlarda jabariylar, qadariylar, mu'taziliylar, murji'iyalar kabi Ollohning zoti-sifatlarini, taqdir kabi masalalarda ixtiloflarni yuzaga keltirgan oqimlarning paydo bo'lishi natijasi edi. Bu holda sof aqidani yangi paydo bo'lgan ta'limotlardan asrash, uni to'g'riligini isbotlash zarurati paydo bo'lgandi. Xolbuki, avvalgi asr olimlarining barchasi kalom ilmi bilan shug'ullanishni "harom" va xattoki "kufr" deb hisoblashgan. Xristianlik doirasida ham teologiya avval boshida "apologetika" (yun. himoyalanoq, o'zini oqlamoq), ya'ni xristianlikni atrofdagi dinlar tazyiqidan himoya qilish, Iso ta'limotining ilohiy ekanini isbotlash shaklida yuzaga kelgan[13:79].

O'sha davrda qarmatiy, qadariy, jahmiy, jabariy, xorijiy va mu'taziliy kabi yo'nalishlar paydo bo'lgan va ular o'rtasidagi aqidaviy tortishuvlar islom ilohiyotini rivojlantirgan. Ulamolar o'rtasida avj olgan bahsu munozaralar sunnat ahli imonini susaytira boshladi. Ana shunday bir vaziyatda, "ahli sunnat val jamoat" aqidalarini bir-biriga zid bo'lgan xilma-xil bid'atchi firqalardan muhofaza qilish maqsadida islom ilohiyot yo'li – Kalom ilmi vujudga keldi. Botil aqidali bid'atchi firqalar ko'paygach, kalom ilmi fiqh ilmidan ajralib chiqib, tafsir va hadis ilmlari kabi asosiy ilmlardan biriga aylandi"[5:9]. Demak, islom teologiyasi sof islomiy aqidalarni buzib talqin qiluvchilarga qarshi muhofazakorlik faoliyatini boshlaydi.

Kalomchilar harakatiga qarama-qarshi harakat sifatida mu'taziliylar shakllangan. Aslida, ular mutakallimlarning dastlabki vakillari bo'lgan. Kalom ilmi va mu'taziliylar faoliyati asosida islom ilohiyoti o'zining xalqchil va tushunarli mohiyatini ko'rsata boshlaydi va bu uning yanada kengroq yoyilishiga, e'tiqodini mustahkamlanishiga ham kuchli ta'sir ko'rsatadi. "Sof islomiy aqidalar" kitobida keltirilishicha, "kalom ilmi musulmonlarni har xil botil e'tiqodlardan asrab, ularning birligi, ittifoqligini ta'minlaydi... Payg'ambarimiz xabar qilganlaridek, islom ummati tezda 73 firqaga bo'linib ketdi. Ulamoi kiromlar musulmonlarni botil, gumroh, bid'atchi firqalardan asrash maqsadida ularga payg'ambarimiz xabar qilgan firqa e'tiqodi qandayligini tushuntirdilar"[5:10]. Demak, islomning asliyatini saqlab qolishga urinish kalom falsafasini rivojlantirgan va bu teologik qarashlarni mukammallashtirgan.

"Islom ensiklopediyasi"da kalomni islom diniy ta'limotini asoslashga harakat qiluvchi oqim sifatida ta'riflanadi"[7:134]. Shuningdek, kalom ilmi paydo bo'lgan vaqtga kelib aqidaga oid masalalarga avvalgi vaqtlarga o'xshab faqat Qur'on va sunnatdan dalil keltirish bilan kifoyalanib bo'lmay qolgan edi. Qarshi taraf aqliy dalil ham keltirishni talab qilar edi. Bu davrda islomiy ilmlar va g'oyalar gurkirab taraqqiy qilgan bo'lib, bu ilm tarkibiy qismlaridan birini tashkil qiladigan kalom ilmi

ham o'z taraqqiyot bosqichining ayni gullagan davriga kirgan edi. Ayni vaqtda barcha ilmlar qatori islomiy ilmlarda ham hurfiylik keng yoyilib, o'z nuqtai nazari va qarashlarini dalil va isbotlarga tayanib amin-erkin ifoda qilish tendensiyasi kuchaydi[2:96]. Ayniqsa, bundan ancha oldin paydo bo'lib, ko'pchilik o'lkalar kabi Movarounnahrni xilma-xil ziddiyatlar va ixtiloflarga sabab bo'lardi.

Kalom ilmi dastlab islomda mavjud bo'lgan turli siyosiy-diniy firqalarning o'zaro munozaralari va boshqa din vakillari bilan bo'lgan bahslashishlar jarayonida shakllangan. Islom davrining dastlabki bosqichlarida jamiyatning diniy-huquqiy asoslarini turli din va xalqlarning milliy madaniyati tashkil qilgan. O'zga dinlarda bo'lgani kabi islomning nazariy-huquqiy tomonlari keyingi asrlarda shakllana boshlagan. Chunki bu din o'rta asrlarda o'z atrofiga arab bo'lmagan – ajam xalqlarini ham birlashtirishga ulgurgan. Shu tufayli islomning diniy-huquqiy ta'limotini yaratishda bu dinni qabul qilgan turli millat va irq vakillarining manfaatlarini ham hisobga olish lozim bo'lgan. IX asr o'rtalariga kelib islomda yirik oqimlarni sunniylar, mu'taziliylar, murjiylar, shialar va xavorijiylar tashkil qilar edi.

Mu'taziliylarning shakllanish yillari kalom rivojlanishining birinchi davri hisoblanadi. Kalom rivojlanishining ikkinchi davri Abul Hasan al-Ash'ariy va Abu Mansur al-Moturidiy faoliyatlari bilan bog'liq bo'lgan. Islom teologiyasida yetuk ulamolardan biri bo'lgan imom Abu Mansur Moturidiy bo'lganlar. Moturidiy islom millati uchun eng tahlikali bir paytda musulmonlarning aqiydasini mardonavor himoya qilgan, musulmonlar ommasi aqiydasining to'g'ri yo'lda, Qur'oni Karim yo'lida, Nabi sollallohu alayhi vasalamning sunnatlari yo'lida, ahli sunna val jamoa yo'lida sobitqadam bo'lishiga sabab bo'lganlar"[10:4]. Mu'taziliylar haqida Abdurauf Fitrat quyidagi fikrlarni keltiradi, "...bu mazhab kamol topib rivojlanib ketaverdi, to shayx Abulhasan Ash'ariy maydonga chiqmaguncha hech kim mu'taziliylarga oshkor gapira olmasdi. Shayx Abulhasan... ahli sunnat aqidiga oid kitob yozadi. Bu kitobda mu'taziliylarning e'tiqod va nazariyalarini aqlan keskin rad etadi.... Bu muhim voqea 912-yilda voqe' bo'lib, mu'taziliya mazhabiga kuchli zarba berildi"[4:46-48]. Abdurauf Fitrat xulosalariga ko'ra, Ash'ariy sunnat aqidalarini mudofaa va muhofaza qilish maqsadida ilmi kalomni ilmiy muomalaga kiritdi. Shuningdek, "Ayni shu jihatdan har ikkala olim asos solgan ta'limotlar ahli sunna val jamoa e'tiqodiy yo'nalishlar tarkibidan o'rin olgan. Shuningdek, ular yashagan davrga kelib, islom dinida paydo bo'la boshlagan turli guruh va firqalarning soni ko'payib ketgan edi. Bu hol imon-e'tiqod masalalarida ko'plab ixtiloflarni keltirib chiqaradi. Shunday guruhlardan biri mu'taziliylar bo'lib, ular aqidaviy masalalarni sharhlashda naqliy dalillardan aqliy dalillarni ustun qo'yar edilar. Natijada salaf hamda ahli hadis ulamolari orasida kalom ilmiga nisbatan tanqidiy fikrlar paydo bo'la boshladi. Mana shunday murakkab sharoitda ulug' mutakkallim Abu Mansur Moturidiy va Abul Hasan Ash'ariy vujudga kelgan muammoli vaziyatni ilmiy asosda bartaraf etishda o'ziga xos usulda o'zlarining katta hissalarini qo'shdilar"[8:6]. Abu al-Hasan al-Ash'ariy (vaf. 935 y.) birinchilardan bo'lib kalom bilan islom aqidalarini uyg'unlashtirishga harakat qilgan. U fiqhda va kalom ilmlarida mashhur olimlardan sanalgan. Abu al-Hasan al-Ash'ariy sunniylikdagi to'rt mazhabning ikkitasiga: shofiyya va molikiyya mazhablariga suyangan[11:7]. Demak, islom tarixida bu ikki oqimning o'zni, islom ilohiyotini rivojlanishi va bu orqali aqidalarni himoyalash tizimini yaratilishi, ularning diniy-ilmiy munozaralari muhim ahamiyatga ega bo'lgan.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Kalom ilmi islom teologiyasining umumiy tarkibiga kirgan va shu bilan birga islomning mafkuraviy-g'oyaviy tizimining ajralmas qismi sifatida baholanishi mumkin. Kalom ilmi islomdagi aqidaviy masalalarni o'rganishi bilan birga uning nazariy asoslarini mantiqiy usullar vositasida hal qilishga qaratilgan ilmiy muammolarni ham o'z ichiga olib, shuning uchun u islom falsafasidagi eng muhim asosiy yo'nalishlardan biri hisoblangan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. – Toshkent: O'zbekiston, 2020.
2. Buyuk yurt allomalari. Tuzuvchi va nashrga tayyorlovchi Ubaydulla Uvatov. –Toshkent: O'zbekiston NMIU, 2016.
3. Corbin H. Histoire de la philosophic islamique. – Paris: 1964.
4. Fitrat A. Najot yo'li. – Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2001.
5. Hoji Ahmadjon Bobomurod. Sof islomiy aqiyda. – Samarqand: Imom Buxoriy xalqaro markazi nashriyoti, 2019.
6. Ibn Xaldun. Al-muqaddima. – Qohira, 1951.
7. Islom ensiklopediyasi. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi DIN, 2004.
8. Oqilov S. Moturidiya va Ash'ariya ta'limotlari tarixi. – Toshkent: Movarounnahr, 2015.
9. Rahimov K. Movarounnahr tasavvufi tarixi: ta'limotining shakllanishi va tizimlashtirilishi (VIII-XI asrlar). – Toshkent: Akademya, 2020.
10. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Hidoyat imomi. – Toshkent: "Hilol-nashr", 2019.

FALSAFA

11. Ziyodov Sh. Al-Moturidiy hayoti va merosi / Mas'ul muharrir: M.M.Xayrullayev. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashr, 2000.
12. Прозоров С.М. Введение // Аш-Шахрастани Мухаммад ибн Абд ал-Карим. Книгао религиясектах. Ч.1. – Москва: Наука, 1984.
13. Религия: Энциклопедия / Сост. И общ. Ред. А.А. Грцанов, Г.В. Синило. – Минск: Книжный дом, 2007.